



THE ROLE OF RISHTON'S HISTORICAL FINDS IN THE DEVELOPMENT OF ETHNOTOURISM

Mahliyo Turdikhojaeva

PhD student,

Tashkent State University of Oriental Studies,

Tashken, Uzbekistan

E-mail: turdixujayevamakhliyo@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Ethnotourism, archaeological finds, Rishton, cultural heritage, historical monuments, Sohibi Xidoya mausoleum, Suratisoy, economic development, cultural wealth, archaeology, M.E. Vorones, Great Fergana Canal, rock drawings.

Received: 27.02.25

Accepted: 01.03.25

Published: 03.03.25

Abstract: The article explores the significance of Rishton city's archaeological monuments and their role in the development of ethnotourism. It highlights how ancient mausoleums and monuments in Rishton, such as the Sohibi Xidoya mausoleum and the Suratisoy heritage site, along with other historical findings, play a key role in promoting ethnotourism. Archaeological finds, historical monuments, and excavations not only help preserve cultural heritage but also foster connections between tourists and local communities. The article also analyzes aspects such as the economic and cultural importance of utilizing Rishton for ethnotourism development.

RISHTON TARIXIY TOPILMALARINING ETNOTURIZM RIVOJIDAGI O'RN

Mahliyo Turdixojayeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktoranti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: turdixujayevamakhliyo@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Etnoturizm, arxeologik topilmalar, Rishton, madaniy meros, tarixiy obidalar, Sohibi Xidoya maqbarasi, Suratisoy, iqtisodiy rivojlanish, madaniy boyliklar, arxeologiya, M.E. Vorones, Katta Farg'ona kanali, qoyatosh sur'atlari.

Annotatsiya: Maqola Rishton shahrining arxeologik obidalar va etnoturizm rivojidagi ahamiyatini o'rganadi. Rishtondagi qadimiy maqbaralar va yodgorliklar, masalan, Sohibi Xidoya maqbarasi va Suratisoy yodgorligi va boshqa tarixiy topilmalarning etnoturizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi yoritiladi. Arxeologik topilmalar, tarixiy obidalar va qazishmalar nafaqat madaniy merosni

saqlash, balki turistlar va mahalliy aholi o'rtasida aloqalarni rivojlantirishga yordam berishi etnoturizmning iqtisodiy va madaniy ahamiyatida Rishtondan foydalanish kabi jihatlar maqolada tahlil etiladi.

РОЛЬ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ НАХОДОК РИШТАНА В РАЗВИТИИ ЭТНОТУРИЗМА

Махлиё Турдихўжаева

Докторант Ташкентского государственного университета востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: turdixujayevamakhliyo@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: этнотуризм, археологические находки, Риштан, культурное наследие, исторические памятники, мавзолеев Сохиби Хидоя, Суратисо, экономическое развитие, культурные богатства, археология, М.Е. Воронец, Большой Ферганский канал, изображения на скалах.

Аннотация: В статье исследуется значение археологических памятников города Риштан для развития этнотуризма. Рассматриваются древние мавзолеев и памятники Риштана, такие как мавзолеев Сохиби Хидоя и памятник Суратисо, а также другие исторические находки, играющие важную роль в развитии этнотуризма. Археологические находки, исторические памятники и раскопки не только помогают сохранить культурное наследие, но и способствуют развитию связей между туристами и местными жителями. В статье также анализируется экономическое и культурное значение использования Риштана для развития этнотуризма.

Kirish

Etnoturizmni rivojlanishida arxeologik topilmalar muhim ahamiyatga ega. Arxeologik obidalar va topilmalar turizm sohasida nafaqat madaniy va tarixiy merosni saqlash, balki mahalliy aholi va turistlar o'rtasida o'zaro aloqalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Arxeologiya va etnoturizmning o'zaro bog'lanishi arxeologik topilmalar, tarixiy obidalar va qazilma ishlari etnoturizmni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, qadimiy yerlar, ibodatxonalar, qishloq joylar arxeologik va tarixiy nuqtai nazardan katta qiziqish uyg'otadi. Bu obidalar mahalliy madaniyatni, xalqning qadimiy turmush tarzini va urf-odatlarini namoyish qilish imkonini beradi. Etnoturizmدا turistik yo'nalishlar orqali arxeologik joylar va uning qoldiqlarini o'rganish, mahalliy xalqlarning tarixini, san'atini va urf-odatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Arxeologik topilmalar etnoturizmning rivojlanishida

nafaqat katta rol o'ynaydi, balki madaniy merosni saqlash, mahalliy xalqlarning tarixiy va madaniy boyliklarini targ'ib qilish hamda iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini yaratadi.

Rishtondagi Soxibi Xidoya maqbara hududning eng ko'zga ko'ringan maskanlaridan hisoblanadi. Uning atrofidagi qabristonni ilk marta o'rganish 1939-yilda Buyuk Farg'ona kanali (BFK) yo'nalishida arxeologik kuzatuv ishlari olib borilgan vaqtga to'g'ri keladi. Kompleks o'rganish ishlari esa 2010-yilgi ko'ngillilar tomonidan amalga oshirildi, atigi ikki qisqa mavsum davom etsa-da, ushbu tadqiqot xarakteriga ega edi. Asosiy maqsadi Soxibi Xidoya maqbarasi hududida va umuman zamonaviy Rishton hududida keyingi qazishma ishlarini olib borish imkoniyatlarini aniqlash edi. Vizual ko'zdan kechirishdan tashqari, Zodiyan qishlog'i qabristonidan 20 m shimolda ikkita kichik chuqur qazilib, shaharning janubiy qismidagi bozor hududida qazishmalar olib borildi. Soxibi Xidoya qabristoni hududidagi chuqurdan olingan materiallar, bundan tashqari, Rishtonda XII asrga oid noyob bronza ko'zalarning tasodifiy topilishi bu yerda haqiqatan ham madaniy ufqlar mavjudligini ko'rsatdi. Qazishmalarning olib borilishiga sabab, shu vaqga qadar hech bir tadqiqotning X asrda vodiydagi eng yirik shaharlardan biri bo'lgan Rishton shahrining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixiga oydinlik kiritadigan arxeologik faktlarni qidirmaganligi hisoblanadi. Ma'lumki, Zodian qishlog'i hududida Buyuk Farg'ona kanali qurilishida eramizning birinchi asrlariga oid materiallarni o'z ichiga olgan qalin arxeologik qatlamlar kuzatilgan. Rishtonda 1934-yildan 2010-yilgacha bir necha marta mahalliy arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Qazishmalar davomida turar-joy binolari va sanoat binolari, jumladan, sopol pechlar qoldiqlari topilgan. Ammo Rishton hududidagi qadimiy me'moriy yodgorliklardan ko'p narsa saqlanib qolmagan. Eski manzilgohning qadimiy qoldiqlarini Sohibi Xidoya qabristonida ko'rish mumkin. Eng qadimiy binolardan yana biri Xo'ja Ilg'or masjidi hududida joylashgan XVIII asrda qurilgan qadimiy konus shaklidagi korixonadir. Hozirgi Xoja Ilg'or masjidi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida xuddi shu nomdagi qadimiy qabriston o'rnida qurilgan. Masjid Shokir Mingboshi buyrug'i bilan qurilgan. Masjid hududiga ko'p yillik chinor, qayrag'och, tol ko'chatlari o'tqazilib, ko'rkam muhit, go'zal manzara yaratilgan. Masjid binosi ko'p ustunli ivan bilan ochilib, unga engillik bag'ishlaydi. Masjidning sharqida sun'iy suv ombori – hovuz bo'lgan.

Farg'ona viloyatining, qolaversa vodiyni eng ko'zga ko'ringan va qadimiy qoyatosh rasmlaridan biri - Rishton tumaniga qarashli Tul qish-log'idan 4-5 km janubi-g'arbdagi So'x daryosining chap qirg'og'iga joy-lashgan Suratisoy yodgorligidir. Rasmlar soyning har ikkala qirg'oqlaridagi yirik donali ohaktosh qoyalarga va soyning o'rta qismidagi Suratisoy nomini olgan, alohida ajralib turgan orolsifat, balandligi soy sathidan 25 metr yuqori bo'lgan tosh qoyalarga urib cho'kichlangan. Aynan shu joyni mahalliy aholi muqaddas hisoblab, bu yerda

qurbonlik marosimlari va boshqa tadbirlarni o'tkazganlar. 1980-yilgacha bu yerga kasal bo'lgan chorva mollari olib kelganlar va ularni shu tosh atrofida aylantirganlar, undan shifo so'raganlar. Ming afsuski, 1982-1983-yillarda So'x suv ombori qurilishi davrida ushbu tosh portlatib yuborildi, tarixda hozirgi kunda undan olingan ko'chirmalar qolgan. di, xolos. Bu rasmlar 1939-yilda M.E. Vorones va T.V. Obolduyevalar tomonidan So'x-Haydarkon-Shohimardon yo'nalishi bo'yicha arxeologik qidiruv ishlari olib borishayotgan davrda olingan. 1939-yilda M.E. Vorones boshchiligidagi Farg'ona ekspeditsiyasi So'xdan Oxna qishlog'igacha bo'lgan hududda arxeologik qidiruv ishlarini o'tkazadi. Natijada, So'x daryosining o'ng qirg'oqlaridagi Lambur qishlog'idan 4-5 km g'arbda, Sariqamish tog'laridagi Suratisoy darasida joylashgan qoyatosh suratlari, o'rta asrlarga oid yodgorliklar ro'yxatga olinadi. Bu qoyatosh suratlari dastlab 1912-yilda geolog V.N. Veber tomonidan topilgan. M.E. Vorones bu yerdagi asosiy rasmlardan bir necha qisqartirilgan nusxalar ko'chiradi, ularning ta'rifini yozib oladi. Ularning turi, ishlanish uslubi, quyosh nurida qorayishiga e'tibor berib, rasmlar bronza (miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmi), ya'ni sak davrlarida va eng keyingilari XIX-XX asrlarda chizilgan, degan xulosaga keladi. M.E. Vorones rasmlardan ko'chirma nusxalar olishda va ularni ta'riflashda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yganligini o'zi ham ta'kidlab o'tgan. Yodgorlik keyinchalik arxeolog G.V. Parfenov tomonidan ham o'rganilgan. Uning yozishicha, bu yerdan 1000 dan ortiq tog' takalari, otlar, ayiqlar, buqalar, bizonlar, qoplonlar, tuyalar, bo'rilar va boshqa hayvonlarning rasmlari topilgan. Undan tashqari, u bu yerda tog' takalarini ov qilish manzaralari ham bo'lganligini qayd etadi. U bu yerdan paleolit davri "mamonti" rasmini topganligini ta'kidlaydi va bu yerdagi buqa va bizon suratlarini ham paleolit davri bilan davrlaydi. Suratisoy qoyasidagi buqa va sigirlarning rasmlari ovchilarni qiziqtiradigan yavvoyi hayvonlardan farq qiladi. Bu yerda asosan, uy hayvonlari aks ettirilgan. Shuningdek, ular bilan birga chizilgan odamlarning tasvirlari ham mavjud. Ularning qo'llarida hech qanday ov qurollari yo'q. 1890-yilda Tul qishlog'i yaqinidagi Mug'tepa mavzesidan mahalliy aholi tomonidan "ikki boshli chipor ilon" ko'rinishidagi qadoqtosh aniqlangan. 1894-yilda qadoqtoshtosh Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi muzeyiga topshiriladi. M.E.Vorones 1956-yilgi maqolasida bu topilmani bronza davriga oid deb belgilaydi. Keyinchalik bu davrlashtirish amerikalik F. Kolem tomonidan ham tasdiqlanadi. 1912-yilda geolog olim N. Veber hozirgi So'x tumani Tul qishlog'i yaqinida, daryo sohilidan tosh plitalarga o'yib ishlangan su-ratlarni topadi. Mahalliy aholi bilan olib borilgan etnografik tadqiqotlar natijasida mazkur makon qadimdan Surati (Suratikux, Suratisang, Su-ratisoy) deya atalib kelinganligi aniqlangan. Tadqiqotchilar yodgorlikni bronza davri bilan davrlashtirishadi.

Olimlarning fikrlariga ko'ra, etnoturizm va arxeologiya o'rtasidagi aloqalar turizmning ilmiy, madaniy va iqtisodiy jihatlarini o'rganish uchun muhimdir. Arxeologik obidalar va tarixiy joylar etnoturizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, chunki ular nafaqat turizmni rivojlantiradi, balki madaniy merosni saqlashga va mahalliy aholi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Arxeologiya va etnoturizmning o'zaro aloqasi o'rganilayotgan jamiyatlarning madaniy va tarixiy ahamiyatini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Rishton, o'zining boy arxeologik va etnografik merosi bilan, etnoturizmning rivojlanishi uchun katta salohiyatga ega. Arxeologik topilmalar va Rishtondagi madaniy obidalar turistlar uchun qadimiy tarix va madaniyatni o'rganish imkoniyatini yaratadi. Etnoturizm va arxeologiya o'rtasidagi uyg'unlik Rishtonning tarixiy va madaniy merosini saqlashga xizmat qiladi, shu bilan birga, mahalliy jamoalar uchun iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Rishton o'zining etnoturizmni rivojlantirishdagi rolini davom ettirgan holda, nafaqat o'z tarixini saqlab qoladi, balki uni dunyo bo'ylab tanitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Suratisoy kabi madaniy yodgorliklarimizni zavolga yuz tutmasligi uchun qolgan barcha yodgorliklarimizni asrab avaylashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахроров И. Керамика риштанского типа из Бухары второй половины XIX в. // ИМКУ. – Вып. 16. – Ташкент, 1981. – С. 114–125
2. Жуков В.Д. Отчет о работе второго отряда археологической экспедиции на строительстве Большого Ферганского Канала // Труды института истории и археологии. Т. IV 1951. – С. 41-84
3. Кабиров Ж. Сармишсойнинг қоя тўшларидаги расмлар. – Тошкент: “Фан” 1976. – 119 б.
4. Мирзахмедов А.М., Мирзахмедов Х.А Фарғона водийси-нинг ту-ризм салоҳияти // Namangan viloyatining tarixiy obidalar va ularning viloyat turizm sohasining rivojlanishidagi o'rni. – Namangan, 2018. – С. 4-5
5. Nosirov B.G. Farg'ona viloyatiga iqtisodiy tavsif va unda turizmning ahamiyati // Экономика и социум, №10, – Москва, 2020 г. – В. 183-186
6. Умаров Ш.С. Фарғонада туризм фаолияти // Ўрта Осиё та-рихи ва археологиясию – Термиз, 2022. – Б. 13-16
7. Пардаев М.Х Сўх ҳавзасининг археологик ўрганилиши та-рихи // Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар мавзусидаги рес-публика 33-куп тармокли илмий масофавий онлайн конференция материаллари туплами. – Тошкент: “Tadqiqot”, 2021. – 19 б.
8. Воронец М.Е. Каменное изображение змей из кишлака Сох Фер-ганской области //

КСИИМК, №.61, 1956. – С. 48-55.

9. Zokirov, B. (2024). The role of national-cultural traditions and intangible cultural heritage in the development of ethno tourism. Science and innovation, 3(Special Issue 46), 794-796.

10.Одилов, Б. (2024). Некоторые комментарии о возможностях развития этнотуризма (на примере наманганской области, янгикурганского района). Science and innovation, 3(Special Issue 46), 507-510.